

BOSHLANG`ICH SINIF O`QUVCHILARIDA SO`Z YASALISHIGA OID TAYANCH KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

Nazirqulova Shohista Ilhomovna

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqola boshlang`ich sinf o`quvchilarida so`z yasalishiga oid kompetensiyalarni shakllantirish texnologiyalari masalalariga bag`ishlangan bo`lib, o`zbek tilidagi so`z yasash usullari haqida ma`lumot beriladi. Unda boshlang`ich sinf o`quvchilarining so`z yasash usullariga oid kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy ahamiyati, shu maqsadga erishish yuzasidan metodik tavsiyalar, didaktik topshiriqlar bayon qilingan.

Kalit so`zlar: so`z, kompetensiya, pedagogik-psixologik, **bilimlar, malakalar, tajriba.**

*ФОРМИРОВАНИЕ БАЗОВЫХ СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У
УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ.*

Назиркулова Шохиста Илхомовна

Аннотация. Данная научная статья посвящена вопросам технологий формирования компетенций, связанных со словообразованием у учащихся начальной школы, представлена информация о способах словообразования в узбекском языке. Описано теоретическое значение формирования компетенций учащихся начальной школы в части словообразования, методические рекомендации и дидактические задания для достижения поставленной цели.

Ключевые слова: слово, компетентность, педагогико-психологическая, знания, умения, опыт.

*FORMATION OF BASE COMPETENCIES RELATED TO WORD FORMATION IN
PRIMARY SCHOOL STUDENTS*

Nazirqulova Shohista Ilhomovna

Annotation. This scientific article is devoted to the issues of technologies for the formation of competencies related to word formation among elementary school students, information is provided on the methods of word formation in the Uzbek language. The theoretical significance of the formation of competencies of elementary school students in terms of word formation, methodological recommendations and didactic tasks to achieve the goal are described.

Key words: word, competence, pedagogical and psychological, knowledge, skills, experience.

Bugungi kunga kelib o'sib kelayotgan yosh avlodning dunyoqarashini kengaytirish va hozirgi zamon talablariga mos ravishda ta'lim va tarbiya berishda barcha fanlarga oid bilimlarni, kompetensiyalarni shakllantirish muhimdir. Shu o'rinda kompetensiya atamasiga to'xtalib o'tamiz. Kompetensiya bu fan bo'yicha egallagan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo'llay olishdir. Anglashiladiki, boshlang'ich sinf o'quvchilariga so'z yasalishiga oid bilimlarni o'rgatish, uni kundalik hayotda qo'llay olib, ko'nikma hamda malaka darajasiga ko'tarish so'z yasalishiga oid kompetensiyalarni shakllantirish demakdir.

O'zbek tili tizimida so'z yasalishiga oid kompetensiyalarni shakllantirish bola uchun katta ahamiyatga ega. Chunki, bu o'quvchi so'zning morfologik tuzilishining mohiyatini bilishga, o'zaro bog'liq bo'lgan o'zakdosh so'zlar o'rtasidagi semantik aloqalarni anglashga yordam beradi. Bu esa o'z navbatida so'zlarning semantikasini takomillashtirishga olib keladi, o'quvchiga ularni nutqda to'g'ri va aniq ishlatishga imkon beradi.

Boshlang'ich ta'lim tizimida so'z yasalishini o'rgatish, shubhasiz, so'z tarkibini o'rganish orqali amalga oshiriladi va uning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi.

So'zda morfemaning ahamiyatini anglash, shuningdek, affikslarning semantik ma'nosini bilish o'quvchilarda nutqning aniq shakllanishiga ta'sir etadi. O'qituvchining vazifasi o'quvchilar so'zning leksik ma'nosini tushunibgina qolmay, matnda aniq affiksli so'zlardan ongli foydalanishlarini oshirish hisoblanadi.

So'z yasovchi qo'shimchalar ustida ishlash ba'zi so'z yasovchi qo'shimchani ma'nosini va yasama so'zning grammatik belgilarini aniqlash bilan birga olib boriladi. So'z yasovchi qo'shimchani ma'nosini tushuntirish uning so'z yasashdagi ahamiyatini o'quvchilar anglashiga imkon beradi, ularning diqqat-e'tibori so'z yasovchi qo'shimcha yordamida yangi leksik ma'noli so'z yasalishiga qaratiladi: (masalan: gul-gulchi, guldon, gulla). Yasalgan so'z qaysi so'z turkumiga kirishini aniqlash so'z yasovchi qo'shimcha yordamida har xil so'z turkumiga oid so'zlar yasash mumkinligi haqidagi tasavvurni chuqurlashtiradi.

Boshlang'ich sinfdan so'z yasash hodisasi so'zning morfemik tuzilishini o'rganish bilan bog'liq ravishda olib boriladi. Bu aynan boshlang'ich sinfnin 3-bosqichiga to'g'ri keladi. Shu davrga kelib, o'quvchilar darslik orqali "O'zak va o'zakdosh so'zlar" mavzusi bilan tanishadilar. Ushbu mavzuni o'rganish jarayonida o'zak, qo'shimcha, so'z yasovchi qo'shimcha, so'zlarni bog'lovchi qo'shimchalar tushunchalaridan ayrimlari bilan tanishtiriladi. O'quvchilarda turli mashqlarni bajarish orqali so'z yasovchi qo'shimchalar haqida tushuncha hosil bo'lgach, "so'z

yasovchi qo‘shimchalar” mavzusi bilan tanishtiriladi. Mavzu orqali bir qancha so‘z yasovchi qo‘shimchalar, ularning so‘z tarkibidagi vazifasi qaysi so‘z turkumdan qanday so‘z turkumini yasayotganligi bilan ilk bor nazariy tanishadilar. Bundan tashqari darslikda berilgan ushbu qoida “yangi so‘z hosil qiladigan qo‘shimchalar so‘z yasovchi qo‘shimchalardir. Ular (^) belgi bilan ko‘rsatiladi” o‘quvchilar tomonidan yod olinadi.

3-sinfda so‘z yasovchi qo‘shimchalar ustida ishlash, so‘zda so‘z yasovchi qo‘shimchalarning ahamiyatini tushuntirish va shu asosda so‘z yasovchi qo‘shimcha tarkibida mavjud bo‘lgan so‘zdan o‘z nutqida ongli ravishda foydalanish ko‘nikmasini o‘stirish morfemani o‘rganishning asosiy vazifasi hisoblanadi. Bunda o‘quvchilar so‘z yasovchi qo‘shimcha yordamida yangi leksik ma’noli so‘z yasash mumkinligini anglashi muhim ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich sinfda so‘z yasash hodisasi so‘zning morfemik tarkibini o‘rganish bilan bog‘liq holda olib boriladi. Chunonchi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari 3-sinfda “O‘zak va o‘zakdosh” so‘zlar mavzusi bilan tanishish va mavzuga oid mashqlarni bajarish orqali **-chi, -la, -li, -kor, -dosh, -siz** kabi so‘z yasovchi qo‘shimchalar haqidagi bilimlarni egallab boshlaydilar. Keyinchalik esa mustaqil so‘z turkumlarini o‘rganish jarayonida ot yasovchi **-chi, -kor, -dosh, -zor, -loq** qo‘shimchalarini, sifat yasovchi **-li, -siz, -dor** qo‘shimchalarini, fe‘l yasovchi **-la, -illa (-ulla)** qo‘shimchalarini o‘rganadilar.

4-sinfda o‘quvchilariga esa beriladigan bilimlar mazmuni quyi sinfdagi bilimlar asosiga qurilib, boyitib boriladi. Bunda ular so‘z yasovchi qo‘shimchalardan **-soz, -k, -q** (ot yasovchi), **ser-, be-, -chan, -q** (sifat yasovchi), **-lan, -sira, -lash** (fe‘l yasovchi) qo‘shimchalar bilan tanishib, mashqlar bajaradilar.

So‘z yasovchi qo‘shimchalar ustida ishlash amaliy ravishda ba‘zi so‘z yasovchi qo‘shimchani ma’nosini va yasama so‘zning Grammatik belgilarini aniqlash bilan birga olib boriladi. So‘z yasovchi qo‘shimchani ma’nosini tushuntirish uning so‘z yasashdagi ahamiyatini o‘quvchilar anglashiga imkon beradi, ularning diqqat-e’tibori so‘z yasovchi qo‘shimcha yordamida yangi leksik ma’noli so‘z yasashiga qaratiladi.

Umuman, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga so‘z yasash hodisasi haqidagi bilimlarni berish yangi tushunchani hosil qilish jarayoni bilan bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun tushunchani o‘zlashtirish ustida ishlaganda, uning mavhum belgilarini ajratish uchun muayyan til materiali ya’ni ma’lum bir so‘z tahlil qilinadi. Demak, yuqoridagilarga asoslanib, so‘z yasovchi qo‘shimchalarga doir esda saqlanadigan qoidalarni o‘zlashtirish uchun quyidagi muhim belgilarga e’tibor berish zarurdir:

1. O‘zakka qo‘shilib, yangi ma’noli so‘z hosil qiladigan morfema affiks morfema bo‘ladi.
2. Bitta so‘zga turli so‘z yasovchi qo‘shimchalar qo‘shish bilan o‘zakdosh

soʻzlar hosil qilinadi.

3. Soʻz yasovchi qoʻshimchalar oʻzakdan anglashilgan maʼno bilan bogʻliq boʻlgan boshqa bir soʻz hosil qilsa, uni yasama soʻz deyiladi.
4. Soʻz yasovchi qoʻshimchadan yasalgan yangi soʻz mustaqil maʼno anglatgan soʻz boʻlib, bir soʻz turkumi doirasida lugʻatni boyitadi yoki boshqa soʻz turkumiga oʻtib keta oladi.

Anglashildiki, oʻquvchilar boshlangʻich sinfda soʻz yasaliş usullaridan faqat affiksatsiya usuli bilan nazariy va amaliy tanishadilar. Qolgan usullar haqida oʻquvchilarga maʼlumot berilmaydi. Mening fikrimcha, oʻquvchilarda hosil qilingan lingvistik bilimning har qanday kurtaklari ularda yuqori sinfda beriladigan tilga oid bilimlarning asosi va tayanchi boʻlib xizmat qiladi. Ammo, boshlangʻich sinf oʻquvchilariga oʻzbek tilidagi soʻz yasaliş usullari haqidagi bilimlar qiyinlik, murakkablik qilganligi sababli toʻliq tushuntirishning imkoniyati yoʻqroq. Shuning uchun ushbu yasaliş usullarida yasalgan soʻzlarning eng sodda va tushunarli, ayniqsa, ularning yoshlariga mos variantini tanlab, shu asosda ularni oʻrgatish usullarini ishlab chiqish zarur.

Xulosa oʻrnida shuni aytish lozimki, oʻquvchilarda hosil qilingan soʻz yasalişiga oid bilimlar kichik yoshdagi oʻquvchilarning nutqiy qobililyatlarini va aqliy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilari ekan, oʻquvchilarning bu sohadagi lingvistik bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish lozimdir. Albatta, bunda oʻquvchilarning yoshi va dunyoqarashiga mos soddaroq material va usullarni tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu boshlangʻich tushunchalarni shakllantirishda esa boshlangʻich sinf darsliklarida uchragan semantik, kompozitsiya, takrorlash va fonetik usullarida yasalgan soʻzlarni asos qilib olish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ш.М.Мирзиёев. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони.-Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 йил, 6-сон, 70- модда.
2. А.Ҳоҗийев, “Оʻzbek tili soʻz yasaliş”, Oliy oʻquv yurtlarining filologiya fakulteti talabalari uchun qoʻllanma, Toshkent, “Oʻqituvchi” nashriyoti, 1989-yil.
3. Q.Sapayev, “Hozirgi oʻzbek tili”, Toshkent, Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2009-yil.
4. U.Tursunov, A.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev, “Hozirgi oʻzbek adabiy tili”, Toshkent, “Oʻzbekiston” nashriyoti, 1992-yil.
5. M.Hamrayev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova va b., “Ona tili” darsligi, Toshkent, “Iqtisod-moliya” nashriyoti, 2007-yil.